

TONG Yulduzi

№4 (66389)
2003 yil
27 yanvar
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

Elchiga maktub, elchidan javob xat

Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchisi janoblariga

Muhtaram Elchi janoblari!

Mening ismim Komron Aminov, Foshkentdagi 180 - maktabning 3-sinfida o'qiyman. Men Sizni katta oilamiz nomidan Yangi - 2003 yil bilan chin qalbidan tabriklayman! Sizga, oila a'zolaringizga va elchixonada xodimlariga Yangi yilda baxt va omad tilayman!

Yangi asrning dastlabki ikki yilida bizning katta oilamizda esdan chiqmaydigan va quvonchli voqealar ko'p bo'ldi. Shulardan biri bizning buyuk Xitoy mamlakatiga safar qilish orzuimizning amalga oshganidir. Mening dadamlar 2001 yilning sentabridan 2002 yilning avgustigacha bir yil mobaynida YUNESKO yo'llanmasi bilan Xitoy Xalq Respublikasining Shandun universitetida o'z malakalarini oshirdilar. Dadamlar xitoyshunoslar, ko'pdan beri Sharqshunoslik institutida xitoy tilidan talabalariga dars beradilar.

Dadamlar Xitoyda o'qiyotgan vaqtlarida

oyimlarni, meni va singlimni taklif qildilar. Biz uch oy Xitoy Xalq Respublikasida yashadik.

Shunda buyuk mamlakatning ko'pgina tarixiy joylarini ko'rdik. Men ularni hech qachon unutmayman.

Ko'rganlarim haqida dadamlar yordamlarida internet orqali buvimlarga hikoya qilib

t u r d i m .

Anchagina suratlar ham yubordik.

Buvim hikoyalarni birlashtirib, suratlar bilan

birga O'zbekistonda chiqadigan eng ommaviy bolalar gazetasi «Fong yulduzi»ga yuboribdilar. Fahririyat xodimlari maqotalarimni gazetada chop etishibdi.

O'zbek bolalarining Xitoy haqida ancha narsa bilib olganlaridan men ham juda xursand bo'ldim. Mening tengdoshlarim ko'p narsaga qiziqishadi.

Janob Elchi amaki! Men xitoy tilini o'rgana

boshladim. Chunki katta bo'lganimda men ham dadamlarga o'xshab, xalqlarimiz o'rtasidagi

do'stlikning mustahkamlanishiga o'z hissamni qo'shmoqchiman. Men xitoy bolalari haqida, ularning hayoti, o'qishi, qiziqishi haqida ko'p narsalarni bilishni istayman. Ular haqidagi hikoyalarni o'qisam deyman. Xitoy bolalari bilan do'stlashishni istayman.

Sizni Yangi yil bilan tabriklar ekanman,

Sizga O'zbekistondan esdalik sifatida milliy

do'ppimizni sovg'a qilmoqchiman. Vana Sizga «Fong yulduzi» gazetasining uchta sonini yuborayman. Ularda mening Xitoy haqidagi hikoyalarni bosilgan.

Sizga samimiy salom va eng yaxshi istaklar bilan xat yozuvchi,

Komron AMINOV.



Prezidenti asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA
VA TAMOIYILLAR

(Davomi.

Boshi o'tgan sonlarda).

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illat, bu — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalari ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik)

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi — xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarining asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Hozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

(Davomi bor).

OLIS SAFARLAR ISHTIYOQIDA..

Assalomu

alaykum! Aziz Komronbek!


Men sening xatingni oldim. «Tong yulduzi» gazetasining uch sonidagi sen Xitoy mamlakatiga qilgan safaring haqidagi hikoyalaringni olib juda xursand bo'ldim.

Sening Xitoyga qilgan safar taassurotlaring, do'stlaringga qilgan hikoyalaring o'zbek bolalarining g'oyat qiziquvchanligini, dunyoni tanishga intilishini, bilimga chanqoqligini, o'z

vatanini va xalqini sevishini yaqqol namoyon etib turibdi. Bu meni juda ham xursand qildi.

Senga katta rahmat!

Senga salomatlik, jismonan baquvvatlik, a'lo baholaringning ko'p bo'lishini tilayman. Bilimdon bolalar omadni osmondan tushishini kutib o'tirmaydilar. Ular barcha yutuqlarga mehnat, yaxshi niyat va intilish bilan




erishilishini yaxshi biladilar. Bunday bolalar chin vatanparvar bo'lib o'sadilar. O'ylaymanki, sen va sening tengdoshlaring kelajakda yaxshi o'qiydilar va o'z Vatanningizni bundan ham chiroyli qiladilar, degan umiddaman.

Xitoy taqvimi bo'yicha Yangi yil 1

fevralda kirib keladi. Men seni va tengdoshlaringni Yangi yil bilan tabriklayman.

Men senga fotoapparat taqdim etaman. Uni ishlatish juda ham oson. U bilan sen atrofingdagi qiziqarli va yaxshi narsalarni suratga tushirasan. Bu senga odam va olamni o'rganishingga yordam beradi!

Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi Elchisi Chjan CHJIMIN.



Ota-onang davlatning. Bu gapning mag'ziga keyingi paytlarda tushunyapman.

Bundan olti yil avval mehribon onajonim bu yorug' dunyoni tark etdilar. Biz otamga qattiq suyanib qolgan edik. Biroq... Uch yildan keyin otam ham olamdan o'tdilar. Biz bu vijonim qo'lida qoldik. Ular ham keksayib qolganlar. O'zlarini yemay, yedirdilar, kiymay kiydirdilar. Shunday bo'lsa-da, oilamiz ancha qiynalib qoldi. Ana shunday vaqtlarda oramizda yaxshi insonlar borligidan quvondim.

YAXSHILAR, YAXSHILIKLAR BOR BO'LSIN

Men o'qiydigan maktabni «Chorsu savdo markazi» otaliqqa olgan ekan. Uning direktori Ravshan aka Abdumajidov oilamizga katta yordam berdilar. Ham moddiy, ham ma'naviy bergan yordamlari bois, biz o'zimizni ancha tiklab oldik.

O'z gazetam orqali Ravshan akaga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Doimo sog'-salomat bo'ling. Sizning mehribonchiligingizni biz hech qachon unutmaymiz. Sizdek oliyjanob insonlar oramizda ko'payaversin. Yaxshilar, yaxshiliklar doimo bor bo'lsin.

*Ra'no ABDUG'AFFOROVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 324- maktabning
10- «A» sinf o'quvchisi.*

Mening maktabda do'stlarim juda ko'p. Ayniqsa Marg'uba va Malikalar bilan birga bo'lib qolsak, sho'xligimiz tutib qoladi. Bir kuni bizning o'yinimizdan «o'q» chiqdi.

Yangi yil arafasida yaxshigina qor yoqqan edi. Biz qizlar bilan birgalashib qorbo'ron

QORBO'RON O'YNAMAYDIGAN BO'LDIK

o'ynamoqchi bo'lib maydonga bordik. Mazza qilib qorbo'ron o'ynadik. Azbaroyi qiziqib ketganimizdan kech bo'lib qolganini ham sezmay qolibmiz. Bu orada darslar ham tugab qolibdi. Shunda uyimizga ketmoqchi bo'lib turgandik, Malika to'satdan Marg'ubaga yana qor otdi. Otgan qori mo'ljalga tegmay, ko'chaning narigi betida suhbatlashib turgan o'qituvchimizga tegsa bo'ladimi. Qo'rqib ketganimizdan tezda «quyonni» rasmini chizib yubordik.

O'qituvchimiz bizni ko'rmay qoldilar. Shunday bo'lsa-da, ancha vaqtgacha ulardan uyalib yurdik. Hatto kechirim so'rashni ham o'yab qo'ydik. Ammo bu ishni haligacha eplolmayapmiz. Biroq, qorbo'ron o'ynamayotganimiz aniq.

*Umida XOLMIRZAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani To'qbo'y jamoa shirkat xo'jaligidagi
43- o'rta maktabning 11- «A» sinf
o'quvchisi.*

Yaqinda maktabdan qaytayotib, bir noxush hodisaning guvohi bo'ldim. Mendan taxminan 10-15 qadam oldinda qizlar ketishardi. Qizlarga qarama-qarshi tomondan

SALOMNI BILMAGAN QIZLAR



bir chol ham kelayotgan edi. Qizlar mo'ysafid yonidan beparvogina o'tib ketishdi. Cholning orqasidan kelayotgan yana bir kishi bu holni kuzatib turgan ekan shekilli, qizlarga salom berib o'tdi. Biroq, qizlar uyalishni o'rniga, birbirlariga qarab, labini burishdi.

Menga bu manzara sira yoqmadi. Nahotki, qizlar kattalarga salom berish kerakligini unutishgan bo'lsa?

Aziz o'quvchilar, salom ham qarz, ham farz ekanligini hamisha yodda tutaylik.

*Jo'rabek ERGASHEV,
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
11- maktabning 10- sinf o'quvchisi.*

Men Chilonzor tumanidagi «Navbahor» mahallasida yashayman. Mahallamiz unchalik ahil emas. Shuning uchun ham kamchiliklar ko'p.

Biz yashaydigan ko'p qavatli uylarda asosan yosh oilalar yashaydi. Ammo ularning farzandlari mazza qilib o'ynashlari uchun bolalar maydonchasi

MAHALLAMIZ OBOD BO'LADI

Ko'chalarimiz esa asfaltlanmagan.


Nasib bo'lsa, obod mahalla yilida mahallamizdagi ana shu kamchiliklar tuzatiladi. Qo'shnilar bir-biri bilan yaxshiroq tanishib, do'stlashadi, deb o'ylayman.

*Nodira MIRZAMATOVA,
Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.*



VIKTORIYA REGIYA

Dunyodagi eng yirik bargli o'simlik Amerikadagi Amazonka daryosining irmoqlari bo'ylab o'sadi. Bu o'simlik «Viktoriya regiya» deb ataladi. U kamyob bo'lib, ko'rinishi barkashni eslatadi. Uning suv betida qalqib turadigan barkashsimon yirik barglari bir necha kilometr ga



cho'zilib ketar ekan. Bitta bargining eni esa 2 metr ga yetadi. Ma'lumotlarga qaraganda, uning ustida 35 kg. keladigan bola bemalol tura olar ekan.

Yer kurrasining boshqa qit'alarida uchraydigan o'simliklar haqida qiziqarli ma'lumotlarni biz 5-6 sinf «Botanika» darsligidan o'qib olamiz. Bizni ajoyib darslik bilan ta'minlagan aka-opalarimizga rahmat deymiz.

*Munisa UBAYDULLAYEVA,
Yunusobod tumanidagi 97 - maktabning
5-sinf o'quvchisi.*

MAKTABDAGI "MODALAR" NAMOIYISHI

Maktabda modalar namoyishi bo'libdimi, deb o'ylayapsizmi? Nima, sizning maktabingizda bu namoyish bo'lmaganmi? Bo'lgan, faqat ayrimlaringiz bunga e'tibor bermagan bo'lishingiz mumkin, xolos.

Yangi o'quv yili boshlanishi bilanoq, farzand va ota-ona oldida bir muammo ko'ndalang bo'lib turadi. Bu ham bo'lsa - maktab formasi. Yuqori sinf qizlari chiroyli va albatta zamonaviy kiyinishni xohlashadi. Ba'zilar bunga erishadi ham. Biroq o'sha qizlar hali o'zlarini o'quvchi ekanliklarini unutib, go'yo modalar uyida yurgandek his qiladilar.

Gohida yoshroq o'qituvchi oldidakim o'quvchi, kim o'qituvchi ekanligini ham ajratolmay qolamiz.

Yana bir tomoni bor. Qizlar modaga berilib, fanlardan orqada qolib ketishadi. O'qituvchining dakkilari kor qilmaydi. Oqibatda soddagina o'qituvchini ham mensimay qo'yadilar.

Shunday ekan, aziz tengdoshim, maktabda modalar namoyishiga yo'l qo'yamaylik. Vazifamiz - o'qish ekanligini unutmaylik.

*Umida TOG'AYEVA,
Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.*

G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligiga

-Olmos opa! Otangizning, ya'ni G'afur G'ulomning «Shum bola» asarini hamon mehr-muhabbat bilan o'qilishiga, kinosini ham hamon kuchli qiziqish bilan tomosha qilinishiga hayratlanmaslikning iloji yo'q. Hamon xalqning diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan mazkur asarda chindan ham qandaydir

sir-

OTAM BOLALARNI SEVARDI,

sehr bor. Balki bu mazkur asarning bolalar haqida yozilgan asarlarga o'xshaganligidir. Asarning yozilish jarayonlarini eslay olasizmi?

-Men o'zim hozirgacha «Shum bola» asarini o'qib, kinosini ko'rib behad lazzatlanaman. Asar otamning qalamiga mansub bo'lgani uchun emas, sehlash kuchining yuksakligidan balki shundaydir. Asar nazarimda 1930 yillarda otamning o'y-xayollarida pishib-yetilib yurgan bo'lishi kerak. 1934-36 yillar lotin alifbosida bosila boshlagan. Unda asarning nomi «Dovdirash» deb atalgan. Shum bolaning fe'l-atvoriga jiddiy nazar solsangiz, behad uddaburon, yo'qni yo'ndiradigan, qaysidir lahzalarda behadaqli, ozgina firibgarligi ham bor, xullas, hayot uchun kurashda o'z dunyoqarashiga ega bir odam. Lekin bolaning qiyofasini, fe'l-atvorini otam shu qadar mehr-muhabbat bilan tasvirlaydilar, salbiy tomonlari ham o'quvchida ijobiy taassurot qoldiradi. Menimcha yozuvchining qudrati va mahorati



shunda ko'rinsa kerak. «Shum bola»ning mana shunday yetuklik darajasiga ko'tarilishining albatta, sabablari bor. Otam 9 yoshlarida otalaridan, so'ng onalardan ham yetim qoladilar. Xonadonda ikki o'g'il, uch qizning otanasiz qolishi tabiiyki o'g'il bolalar boshiga bir muncha qiyinchiliklar soladi. Otam juda yoshligidan ishlashga majbur bo'lardilar. O'sha kezlar «Temurlan» degan tamaki fabrikasi bo'lar ekan. O'sha fabrikaga ishga kirib, qog'ozga tamaki o'raydigan yerda ishlay boshlaydilar. Otamning bobolari Mirzo Orif va bibilari Toshxon bibi asli Qo'rg'ontegi mahallasidan, ya'ni Qoratosh mahallasidan bo'lgan. Aytishlaricha, bobomizning uylariga Asiriy, Muxiy, Furqat, Muqimiy, Hislat kabi o'sha zamonning taniqli shoirlari kelib she'rxonlik qilar ekan. Mana shu jarayonlar otamning shoir bo'lib yetishishga ilk zaminni tayyorlagan bo'lishi kerak. Otam chindan ham bolalarni behad sevadilar. Topganlarini baham ko'rishlari bilan birga doim birga o'ynar, ko'ngillarini topishga harakat qilardilar. Na opam, na men, na ukalarim, na akam biror vaqt otamning qattiq gapirganliklarini eslolmaymiz. Shu sababli bo'lsa kerak, otamning yomon ko'rib qolishlaridan qo'rqib, o'zimizni ehtiyotlardik.

-Albatta, bolalarni sevmasdan bolalar haqida yaxshi asar yozib bo'lmaydi. Bolalar haqida yozilgan asarlar ko'p. Lekin «Shum bola» asariday «Urush yillarida», «Sen yetim emassan», «Men yahudiyman» she'rlari ham juda mashhur bo'lgan, butun dunyo ularni o'qigan.

-Otam millatiga bo'lgan mehrini «Qadim o'zbek xalqisan, asl odam avlodi, Misr ehromlaridan tarixing qariroqdir», degan satrlarda juda chiroyli qilib ifodalaganlar. Qaysidir ingliz tarixchisi o'zbeklarni qandaydir qabila degani uchun mazkur she'rni yonib yozgan ekanlar. Shu bilan birga 1930 yillarda otam bir maqolada «Mustabid edik, shunday

bo'lib qoldik», deb yozgan ekanlar. Ko'rinib turibdiki, otamning qalbida Vatan, millat tuyg'usi doim yuksak darajada bo'lgan. Chamasi otamning o'sha kezgi davlat siyosatiga mos keladigan she'rlar bitishidan asosiy maqsad

- deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi Olmos G'ULOMOVA.

Universitetning rahbarlaridan birining oldiga kirdim. «Ballim yetmadi, zahirada o'qisam maylimi», deya izn so'radim. Rozi bo'lishdi. Yarim yildan keyin a'lo o'qib haqiqiy talabaga aylandim. Mana, otamlarning farzandlariga bo'lgan odilliklari. Agar

men o'qishga kirolmaganimda, otam borib do'q-po'pisa bilan meni kiritib qo'rganlarida kim bilsin, shunga o'rganib

ishyoqmas, dangasa, ya'ni tayyoriga ayyor qabilida ish tutadigan odamga aylanib qolarmidik. Qiziq bir hislat. Odam katta bo'lganda ham hamma odamlardan ota bilan onaning hislatini qidira boshlar ekan. Masalan, qiz bola turmushga chiqqanda ham turmush o'rtog'ining hislati otasining hislatiga o'xshashini juda-juda istaydi. Taqdirning taqozosini qarangi, turmush o'rtog'imning hislati ham otamning hislatiga juda o'xshardi. Bolalarni bo'lar-bo'lmasga urushmasdi, tergamasdi, oradagi otalik va farzandlik masofasini ushlab turishga harakat qilardi va farzandlarimiz ham mana shu nuqtai nazardan yondoshib bizga nisbatan hurmat-ehtiromni asrashardi.

-Bu jarayon otangizning farzandlarida ham o'z ifodasini topganiga bugungi kunda hammamiz guvohmiz.

-Albatta. Mirzaulug'bek ismli o'g'illari akademik, professor, fizika-matematika fanlari doktori. Yadro-fizika institutining direktori bo'lgan. Bir yulduzning nomi «Ulug'bek G'ulomov» deb nomlanadi. Mirzaabdulqodir ismli o'g'illari akademik, professor, fizika-matematika fanlari doktori, fizika-texnika institutining direktori edi. Hozir vazir Mirzaxondamir G'ulomov tarix fanlari nomzodi. Professor. Toshxon G'ulomova ismli qizlari mikrobiolog, doktor, professor.

-O'zingizning farzandlaringiz?

-Uchta. Ikki o'g'il, bir qiz. O'g'lim Durbek. Professor, iqtisod fanlari doktori. Qizim Gavharshodbegim tarix fanlari nomzodi. Yana bir o'g'lim transport bo'yicha mutaxassis. Ismi Jo'rabek. Mustaqillik otamizga alohida oqibat ko'rsatdi. 2000 yil otamizga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

-O'zingizga ham mukofotlar bormi?

-Bor. Eng katta mukofot menda...

-Masalan?

-«G'afur G'ulomning qizi» degan ulug' mukofot menda...

-Yaxshi... (shu yerda har ikkalimiz miriqib kulishdik.)

-«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» degan sharaf bilan meni ham muborakbod etishdi. Bir necha hikoyalar to'plamim bosildi. Yangisi nashrga tayyorlanayapti.

-Qiziqarli suhbatlaringiz uchun tashakkur.

-«Tong yulduzi» gazetasi mening ham sevimli gazetam. Otam bolalar haqidagi hamma she'rlarini ilk bor shu gazetada bostirganlar. Yangi yilda O'zbekistonning, jumladan, «Tong yulduzi» gazetasining o'quvchilariga ham kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

**Suhbatdosh:
O'ktam HAKIMALI.**

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu rukni Rustam OBID olib boradi

Mashhur fransuz fizigi Pol Lanjeven yuz qiyofasidan askarga o'xshab ketar, shop mo'ylovli, qat'iy nigohli odam edi. Uni asl ma'noda askar deyish mumkin, chunki butun

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

aql-idrok, inson uchun kurashib o'tdi. Olim vafot etganida do'stlari va shogirdlari uni Rene Dekartga,

kira oldi.

U fizika bo'yicha diplom bilan Kembrijga, buyuk fizik Jeyms Klerk Maksvel asos solgan mashhur Kavendish laboratoriyasiga yo'ldi. Bu yerda yana bir taniqli olim, daholarni tarbiyalab yetishtiruvchi, o'zida qat'iy klassik ilm-fan bilan yoshlikning jo'shqinligini ajoyib bir tarzda uyg'unlashtira olgan J.J. Tomson (uni barcha «Ji-Ji» deb atardi) qo'lida tahsil ko'rdi. Lanjeven bo'lajak mashhur

men o'z tadqiqotimni e'lon qilmaganimda shu maqsadga u ertami-kechmi o'zi erishishi shubhasiz edi va bu ishni barchadan ko'ra oldinroq bajargan bo'lardi.

Ha, bu Lanjeven bajarmagan asosiy ish edi.

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

U bajargan asosiy ishesa diamagnetizm va paramagnetizm nazariyasi bo'ldi.

"TUSHUNISH BILIMDAN QIMMATROQ"

bu y u k fransuz ensiklopediyachilariga qiyoslashgan. Qarangki, bu vorisiylik nafaqat uning do'stlari, balki dushmanlari nazaridan ham qochmagan... Silliq-sipo kiyingan gestapochi so'roq paytida qo'lida kumushdan yasalgan mo'jazzgina bosh chanog'ini tutganicha, olimga qarab o'ylanib turdi-da:

-Siz xavfli olimsiz, 1789 yildagi inqilobchilaringiz va ensiklopediyachilaringiz singari xatarlisiz, - dedi.

Bu gap fizik o'sha bosh chanog'iga tikilib turib, irqchilik bilan natsizmni dushman deb bilishiga ochiq iqrar bo'lganidan keyin aytilgan edi.

Pol Lanjeven 1872 yil oddiy ishchi oilasida dunyoga keldi va o'zining iborasi bilan aytganda, «Parijning ajoyib xalqi bag'rida tarbiya topdi». Bolaning qobiliyatlari shu qadar yaqqol ko'rinib turardiki, ota-onasining kambag'alligiga qaramay, u o'qishi uchun munitsipalitet pul to'laydigan sanoqli tengqurlari qatorida ta'lim olishga muvaffaq bo'ldi. Mo'jazzgina sanoat fizikasi va kimyosi maktabidagi to'rtta o'qituvchidan biri va laboratoriya ishlarining rahbari 22 yoshli Per Kyuri edi. Do'stlik va ilm-fan harikkovlarini bir umrga bog'lab qo'ydi. Maktab o'qituvchilari Polga Oliy normal maktabga o'qishga kirishi uchun dars berib pul to'plashda yordam qilishdi. Lanjeven ana shu tariqa kuniga ikki soat lotin tilidan, sakkiz soat matematikadan dars berib va to'rt soat repetitorlik qilib, Fransiyaning eng yaxshi o'quv yurtiga

olim Ernest Rezerford bilan bir xonada gazlarning elektr o'tkazuvchanligini o'rganardi. Bu nihoyatda jiddiy ish edi, ammo Ji-Ji elektronni kashf etganida yoshlar quvnoq bazm qurishlariga halaqit berolmadi.

Pol Lanjeven fizika fanida juda ko'p ish qildi. Masalan,



magnetizmning elektron nazariyasini yaratdi. Ionlashtirilgan gazlar to'g'risidagi dissertatsiyasi mumtoz tadqiqot sifatida e'tirof etildi. «Lanjeven usuli», «Lanjeven ionlari», «Lanjeven koeffitsiyenti», «Lanjeven bo'yicha rekombinatsiyalar», «Lanjevenning harakatchanlik formulasi» kabi atamalar darsliklardan o'rin oldi.

Albert Eynshteyn olim haqida shunday yozgan:

-Bir paytlari men o'tgan chigal so'qmoqlardan Lanjeven mustaqil ravishda o'tgani yaqqol ko'rinib turibdi. Agar

Lanjeven fizika

fanining daholariga zamondosh edi. To'g'ri, undan ko'proq ish qilganlar ham bo'ldi. Ammo lekin, yana Inson ham bor-da o'rtada, axir. O'sha Eynshteyn Lanjeven haqida nisbiylik nazariyasiga bog'liq bo'lmagan holda yana shunday deb yozgan:

-Uning odamlarga yanada baxtliroq hayotga erishish yo'lida yordam berish istagi sof aqliy bilimga intilish istagidan kuchliroq bo'lgani ehtimol... Men bu odamni, shu pok va nurli insonni bilganim uchun taqdirga shukronalar aytishim mumkin, xolos.

Lanjeven insonni Lanjeven olimdan ajratib bo'lmaganidek, uning e'tiqodlarini ham ilm-fanda o'zi og'ishmay amal qiladigan prinsiplardan ajratib bo'lmaydi.

-Men shunga iqrormanki, - degandi u, - dialektik materializm g'oyalarini o'zlashtirib olganimdan keyingina fizika tarixini asl ma'noda tushunib yetdim.

Aynan shu o'rinda bir masalaga oydinlik kiritib o'tishga to'g'ri keladi. Sobiq SSSR parchalanib ketganidan keyingina materialistik ta'limotga, xususan, kommunistlarga nisbatan munosabat keskin o'zgardi. Bu endilikdagi, hozirgi davrdagi gap, ammo Pol Lanjevenning asosiy faoliyati to'g'ri kelgan XX asrning 20-40 yillarida bu sohadagi marksistik ta'limotga, kommunistik e'tiqodlarga ishonib yashaganlikda olimni ayblab o'tirmaylik.

(Davomi bor).

Kunlardan bir kun qishlog'imizga bir oila dam olgani keldi. Dugonalarim bilan o'sha oila qo'nim topgan uy yonidan o'tib ketayotib, hovli supurayotgan qizga ko'zimiz tushdi. Yaqindan tanishish maqsadida uni gapga soldik.

-Isming nima? - so'radi Nodira.

-Saida. Bu esa mening ukam Doniyor. Sizlar shu yerlikmisizlar? Qishlog'ingiz kichkina bo'lsa ham juda ko'rkam ekan.

-Ha, judayam. Sen hali bir joyni ko'rmading. Istasang, ertaga tongda o'sha joyga boramiz, - dedik-da, uy-uyimizga tarqalishdik.

Erta tong. Quyosh o'rnidan erinibgina turayotgan payt. Nonushta qilib bo'lgandan keyin hovlidagi o'tlarni yulayotgan edim, shu payt dugonalarim Nodira, Nigora va uning ukasi Zokir kirib kelishdi. O'tni chala-chulpa yuldim-da, yugurib o'rtoqlarim oldiga ketayotgan edim, oyim:

-Ehtiyot bo'linglar, tag'in suvga tushib ketmanglar-a, suvdan chetroqda o'ynanglar, - dedilar. Biz esa «xo'p-xo'p» deganicha Saidalarnikiga yo'l oldik.

Barchamiz birgalikda uzoq yo'lni yaqin qilib, har xil qiziqarli voqealardan gapirib ketdik. Ukalarimiz oldimizda koptok o'ynab ketishdi. Anhora yaqinlashib



SHAHARLIKLAR

Voqeyiy hikoya

qolganimizda Saidaning ko'zlari hayratdan yashnab ketdi.

-Voy-bo'y, namuncha chiroyli bo'lmasa bu joylar, - dedi-da, tepalikdagi lola va lolaqizg'aldoqlarga qarab yugurib ketdi. Astagina bir lolani uzib chakkasiga ilib oldi.

Bizlar ham shunday qildik. So'ngra gullardan gulchambar yasashga tushib ketdik. O'ziyam Nigora qo'shiqni boplaydi-da. Qo'shiqqa shunaqayam berilib ketibmizki, hatto ukalarimiz ham yodimizdan ko'tarilibdi. Ular anhor bo'yida o'ynayotgan edilar. Biz esa sal nariroqda, ya'ni tepalikda edik. Anhorning shundoqqina yonida majnuntol o'sgan edi. Bolalar uning shoxlariga ilinib, cho'milishardi. To'satdan Doniyorning baqirgan ovozi keldi. Qo'rqib ketganimizdan qo'limizdagilarni tashlab ular yoniga yugurdik. Borsak, Doniyor o'sha majnuntol shoxiga ilinib, baqirganicha yig'layapti. Suv uni oqizib ketay deb turibdi, ammo Doniyor jon-jahdi bilan shoxga osilib turibdi. Qarasam, Saidaning yuzi oqarib ketgan, nima qilarini bilmay qotib qolgan edi. Zokir qayoqdandir uzun shox olib keldi. Cho'p yordamida Doniyorni qutqarib oldik.

Uyga qaytdik. Quyosh hali ham tik. Uyga borishim bilan

oyimga bo'lgan voqeani aytib berdim.

Ukam Zokirning aytishiga qaraganda, ular koptok o'ynayotganlarida qattiq shamolesib, koptok suvga tushib ketibdi. Doniyor uni olaman deb, majnuntolga osilib olibdi. Ammo koptok oqib ketib bo'lgan ekan. Keyin bizni yordamga chaqirgan ekan.

Ertasi kuni biz Saidalarnikiga bordik. Borsak, ular yo'l taraddudida ekan.

-Ketyapsizlarmi? - so'radi Nigora.

-Ha, Doniyorning harorati tushmayapti, kasal bo'lib qolibdi. Lekin sizlarga o'rganib qoluvdim. Hech sizlardan ajralgim yo'q.

Biz Saida bilan xomush xayrlashdik. Ana shunaqa voqealar ham bo'lib turadi qishlog'imizda.

Aziza HAKIMOVA,

**Yunusobod tumanidagi
273- maktabning 8- «A» sinf
o'quvchisi.**



Men Urganch shahridagi 16 - maktabning 6- «A» sinf o'quvchisiman. Maktabda a'lo baholarga o'qishim bilan birga oynoma va ro'znomalarni muntazam mutolaa qilaman. Bu yil ham sinfimiz bilan birga odatdagidek

MEN OPAMGA HAVASMAND

«Tong yulduzi», «Gulxan», «Sinfosh»larga obuna bo'ldik.

Ayniqsa biz «Tong yulduzi» gazetasini intizorlik bilan kutib, talashib-tortishib, alohida mehr bilan o'qiymiz. U o'z she'rlari, maqolayu ertaklari bilan she'riyat darsida, insho va bayonlarda bizga katta yordam beradi. Ha, haqiqatan ham «Tong yulduzi» bizning qalin do'stimiz. Mening nafaqat sinfdoshlarim, balki oila a'zolarim ham unga haqiqiy ishqiboz. Opajonim Farog'atning she'rlari, har xil maqola va hikoyalari mana shu gazetamizning sahifalarida tez-tez chop qilinib turadi. Ha, aytganday, yaqinda opam «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotiga nomzod qilib ko'rsatilib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha Respublikaga yo'llanma oldi.

Uning «Qalbmudasiz azizlar», «Onam vaqti chog' bo'lsa» («Tong yulduzi»da chop etildi), «Yuragimda yashaysan Vatan», «Xorazm qizlari», «Munavvar yog'dular» (jamoatoplami) kabi kitoblari nashrdan chiqdi. Opam «Nafosat» yosh qalamkashlar, «Iqtidorli» bolalar ko'rik-tanlovlari qatnashib, Respublikada faxrli birinchi o'rinni egallaganlar. Ko'pgina insonlar opamni rassom sifatida taniydi. Chunki u ajoyib tabiat manzaralarini, odamlarga bo'lgan munosabatini rasmlarda ham aks ettiradi. Ayniqsa menga uning har xil likopcha, qoshiq, nosqovoqlarga chizgan miniatyuralari juda ham yoqadi. 2002 yil «Konstitutsiya - baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda u tasviriy san'at



bo'yicha qatnashib, viloyatda birinchi o'rinni, Respublikada ikkinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Yaqinda XI Zomin seminarida ishtirok etib, katta ustoz shoirlar - Abdulla Oripov, Omon Matjonlar bilan uchrashib, hayajonli taassurotlar bilan qaytdi.

Mana 2 yildirki maktabda «Zakovat» klubi faoliyatini tashkil qilib, unga boshlovchilik qilib kelmoqda. 2002 yil «Zakovat» klubi bilan birgalikda «Ajodlar me'rosi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ikkinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'lishdi. Kelajakda opajonim Farog'at Jabborovaga kattadan-katta zafarlar tilab qolaman.

Remajon JABBOROVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
16 - maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.

YOLG'ONCHILAR KUNI BO'LSA HAM ROST SO'YLABDI



O'sha kuni 1 apreledi. Choshgoh payt ukam Abdulmuhammad mening she'rim «Tong yulduzi»da chiqqanini aytib qoldi. Men uning gapiga hech ham ishonmadim. Chunki o'sha kun yolg'on gapiradigan kun edi-da. Biroqukam o'zining gapini gazetani ko'rsatib isbotladi. Men unda joy olgan «Bahor» nomli she'rimni ko'rib quvonib ketdim. Tahririyat xodimlariga she'rim orqali behad minnatdorchilik bildirgim keldi.

YULDUZLAR

*Osmondagi yulduzlar,
Oy sizlarga ne so'zlar.
Yo'lingizga nigoron,
Bo'ldi bu ma'yus ko'zlar.
Ko'k gumbazning ko'ksida,
Uchqun kabi porlaysiz.
Sizga maftun dillarni,
Yoningizga chorlaysiz.
Rassomsizku tengi yo'q,
Kamil Behzod misoli.
Sizlarda aks etadi,
Hazrat Cho'lpon timsoli.*

Abdulaziz MAMADALIYEV,
Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi
Cho'ngqayma qishlog'i.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Avvalo, odam o'zini qo'lga olib, bemalol sharoitni o'rganishi kerak.

Agar kerak bo'lsa, u o'ziga birinchi

yordamni qilishi lozim, qon oqishini to'xtatish va bog'lab qo'yish kerak. Keyin atrofdagi

odamlarga yordamlashish va ularni tinchlantirishga harakat qilish kerak. Uyumlarning tagida qolganlar tashqaridagi odamlar bilan tovush chiqarish, taqillatish yo'li orqali bog'lanishga urinmoq lozim. Yordam albatta kelishini va uni kutish kerakligini unutmaslik kerak. Kuch-quvvatni tejab, yashovchanlikni, suvsiz, ovqatsiz 15 kun va undan ham ortiq uzaytirish mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak.

Atrofdagi uyum tagida qolganlarga qanday yordam berish kerak?

Atrof, sharoitni sinchiklab o'rganish, fikrlash qobiliyati mustahkam bo'lgan odamlarni topish, ular bilan birlashib, darhol qidiruv-qutqarish ishlarini boshlab yuborish kerak. Jabrlanganlar bilan bog'lanish zarur. Xabar belgisi javobi olingandan keyin jafo ko'rgan odamlar bilan vaqti-vaqti bilan dukillatib gaplashish usulini topib bog'lanish, iloji topilsa, ularni havo, suv va dori-darmonlar bilan ta'minlash zarur. Odamlarni uyum tagidan chiqarib olish uchun, ust tomondan yoki yonidan ochiladi yoki qo'shni xonadan devor teshilib yo'l qidiriladi. Jabrlanganlarni

qutqarayotganda vaziyatga qarab, ko'p mehnat talab qilmaydigan usullarni qo'llash, jafokashlarni va o'zining

qilinadi. Qutqarilgan jabrlanuvchilarning oyoq-qo'llarini


UYUMLAR TAGIDA QOLGANLAR NIMALAR QILISHI KERAK?

xavfsizligini himoya qilgan holda harakat qilish kerak.

Qator hollarda uyumlarni ochish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, yaxshisi devordan deraza tuynik yo'llari ochish kerak. O'tish yo'llarini jihozlashni yaxshi tashkil qilish kerak. Buning uchun yaxshi va keng joy tanlash lozim, chunki har xil hajmdagi harsanglar uyulgan joy bo'laklardan topilsa, harsanglar yiqilishi, dumalashi, siljishi oqibatida o'tish yo'llari bekilib qoladi.

O'tish joylarini mahkamlashda to'sinlar va tirgovichlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

O'tish joylarini esdan chiqarmaslik kerak. Jafo ko'rganlarga va yaqinlashgan sari yo'llarda uchraydigan va ularni qutqarishda to'sqinlik qiladigan har xil kattalikdagi vayrona bo'laklari olib tashlanadi. Ishni avvalo katta bo'laklarni olib tashlashdan boshlagan ma'qul. Jabrlanuvchini qutqarishda avvalo uning boshini, keyin tanasining yuqori qismini va so'ngida oyoqlari ozod



Tabiiy ofat - zilzila

ezilgan qismlarini yuqoriroq joylaridan siqib bog'lab qo'yish

kerak.

Kuyishdan va zaharlanishdan saqlanmoq uchun yonayotgan yoki tutayotgan buyumlarni uyumdan ajratib o'chirish kerak.

Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsating. Maxsus

qutqaruvchilarni kelishini albatta kuting, ularga o'z ko'rganlaringizni aytib bering va ularni qiziqtiruvchi barcha savollarga javob bering.

Falokatga uchragan odamlarning hayoti sizning tinchlik va ustalik bilan qiladigan harakatlaringizga bog'liq ekanligini yodda tuting.

Zilzila bo'yicha bosh mutaxassis, geologiya mineralogiya fanlari nomzodi

Sobir ERGASHEV,
Chirchiq shahar, 23 - yordamchi maktab,
geografiya fani o'qituvchisi
Luiza ERGASHEVA.

ADABIYOT DUNYOSIGA SAYOHAT

O'ZBEK-OZARBAYJON

ADABIYOTIDAGI BIRLIK VA

ZOHID HALIL HAQIDA HAMMA BOLALARGA

ESDALIK

Qadrlido'stlar!

Ozarbayjonning buyuk shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviyini bizning ulug' shoirimiz Alisher Navoiy hazratlari «so'z yulduzining charx urib aylanuvchi osmoni» deb maqtagan edilar. Siz ulug' Nizomiyning «So'z haqida» degan she'rlari bilan tanishdingiz. Adabiyot dunyosiga sayohat qilarkansiz, shuni unutmangki, ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalari asrlardan asrlarga davom etib kelayotgan va yana davom etadigan hodisalardan biridir. Chunki ozarbayjoncha ham, o'zbekcha ham - turkiy til va xalqlarimiz bir-birlarini oson tushunadilar, o'tgan asrgacha bir-birlarini hech qanday tarjimasiz bema'lol o'qiganlar, tushunganlar va bir-birlariga ta'sir ko'rsatganlar. Nizomiyning Navoiyga ta'siri, Navoiyning Fuzuliyga ta'siri, Fuzuliyning Mashrab va Nodiraga ta'siri haqida olimlarimiz bir talay maqolalar bitganlar.

O'zbekistonda faqat Nizomiy va Fuzuliy

emas, Voqif va Hoqoniy devonlari ham, hozirgi zamon shoirlaridan Sulaymon Rustam, Samad Vurg'un, Rasul Rizo, Baxtiyor Vahobzoda, Jobir Navro'z kabilarning kitoblari nashr etilgan bo'lsa, Ozarbayjonda G'afur G'ulom, Mirtemir, Shayxzoda, Zulfiya, Shuhrat va boshqalarning kitoblari nashr etilgan va sevib o'qilgan. Samad Vurg'unning «Agar sendan tonar bo'lsam» she'ri o'zbek shoiri Razzoq Abdurashid tarjimasida uch xil kuyga solingan va o'zbek hofizlari tomonidan aytiladi.

Bolalar adabiyoti ham bunday do'stlik aloqalaridan chetda turgani yo'q. Ko'pchiligingiz «Jo'jalarim» qo'shig'ini eslasangiz kerak. Bu qo'shiq Tavfiq Mutallibovning shu nomli she'ri asosida yozilgan va butun jahonga tarqalib ketgan edi. Bizning bolalar guruhlarimiz uzoq yillar bu qo'shig'ni o'z repertuaridan qo'y olmay ijro etishardi. Faqat bugina emas, Tavfiq Mutallibovning she'riy kitobi ham o'zbekchaga o'girilgan va nashr etilgandi.

Bu gal biz sizlarni yana bir Ozarbayjon shoiri vanosiri Zohid Halilning ijodidan ayrim namunalari bilan tanishtiramiz.

Zohid Halil Ozarbayjonning qoq o'rta sidagi Yevlax shahrida tug'ilgan. Bu - siz bilan biz bilgan Boshkent Bokudan 300 km. uzoqlikdagi go'zal shaharlardan biridir. Boku-Tbilisi temiryo'li Yevlaxdan o'tadi. Eng gavjum, obod va go'zal shaharlardan biri. Tabiati chiroyli, zamonaviy texnika allaqachon kirib kelganiga qaramay, tozaligi, tarovati, qushlari saqlanib qolgan. Qo'shiqlar, ertaklar, afsonalar makoni. Bo'lajak shoir shu yerda o'sdi, ulg'aydi, voyaga yetdi. Keyin Boku universitetida o'qidi. Boshkentda qolib, turli matbuot organlarida ishladi. Shu yerda ijod qila boshladi. O'nlarcha kitoblari nashr etildi. Shalola, Gulnur va Oysel degan shoirona ismli qizlari bor. Hozir yoshi 60 dan oshgan. Uning «Salom, Chirtton» nomli naqlar, ertaklar, she'rlardan tarkib topgan kitobi ayniqsa katta shuhrat qozongan. Unda shoir o'z tug'ilgan makoni Yevlaxning tabiati, hayvonlari, qushlari, yashash tarzi haqida, tarixi, odamlari, donishmandlari, telbalari haqida asta-asta hikoya qilarkan, hikoyalari bora-bora umuman Ozarbayjon haqidagi hikoyalarga aylanib ketadi. Xalqning zakovati, fantaziyasi, uquvi, mardlik-shijoatini g'urur bilan tarannum etadi.

Qadrligazetxonlar!

Mana, sizlarga yangi ruknimizning ikkinchi mavzusini havola qilmoqdamiz. Sizga ma'lum bo'ldiki, bu ruknni shoirimiz Miraziz A'zam olib boradilar.

Miraziz A'zam 1936 yilda Toshkentda o'qituvchi-tarbiyachilar oilasida tug'ilgan. 1958 yilda Milliy Universitetning (Sobiq Toshkent Davlat universitetining) filologiya kulliyotida jurnalistika bo'limini tugatgan. Bolalar va kattalar uchun ijod qiladi. Bolalarga 10 dan ortiq kitobi nashr etilgan. She'r, hikoya, sahna asarlari va maqolalar yozadi. Uning alohida she'riy to'plamlari ruscha (3 marta), ukraincha, turkmancha, mo'g'ulchata tillarda ham bosilgan. She'riy turkumlari, alohida she'rlari yana belorus, latish, moldova, gruzin, ozarbayjon, qirg'iz va boshqa tillarda ham e'lon qilingan.

Miraziz A'zamning o'zi ham jahon xalqlari adabiyotidan juda ko'p she'r, ertak va rivoyatlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Faqat keyingi ikki yil ichida 50 dan ortiq horijiy shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga o'girib, O'zbekiston Radiosi orqali tinglovchilarga yetkazishga muvaffaq bo'ldi. Ulardan 30 ga yaqini «Ma'rifat» gazetasi sahifalarida e'lon qilindi. O'ylaymizki, bizning gazetamiz sahifalarida ham «Adabiyot dunyosiga sayohat» rukni ostida Miraziz A'zamning yangi tarjimalari va adabiy suhbatlari bilan tanisha borasiz.

Kimki Miraziz A'zamning ijod namunalari bilan to'laroq tanishishni istasa, kitob do'konlariga murojaat qilishlari mumkin. Shu kunlarda uning «Qirg' bolaga qirg' savol» nomli she'riy to'plami va «Eng yorug' yulduzlar» nomli pyesalar kitobi sotilmoqda. «Eng yorug' yulduzlar»dagi pyesalarni bolalar o'zlari maktab sahnasida ijro etishlari mumkin. Agar kimda kim bu kitoblarni topolmasa yoki «Adabiyot dunyosiga sayohat» rukni haqida savol bermoqchi bo'lsa, marhamat, to'g'ridan-to'g'ri muharririyatimiz turog'iga (adresiga) rukn nomini ko'rsatib, murojaat qilishlari mumkin.

Bizdan taqdim va taklif, sizdan talab va savollar.

Sizlarga sog'liq va muvaffaqiyatlar tilab,
«Tong yulduzi»
muharririyati.

Bo'ri quyovni kun bo'yi shu qadar quvdiki, bechora quyov otini ham esidan chiqarib qo'ydi. Hech oti nimaligini eslayolmaydi, sho'rlik. Quyov juda xafa bo'lib ketdi - bu dunyoda otsiz yashashdan yomoni bormi?

Qarshisidan tipratikan chiqib qoldi:

-Salom, Shalpangquloq oshnam, bormisan olamda? Bu yerda nima qilib o'tiribsan?

-E, so'rama, ismim nimaligini hech eslayolmayman. Esloymasam ham kerak. Iloji bo'lsa, meni bu ahvoldan qutqar.

-Qulog'ingga qarasang-ku, bo'ladi, havas qilsa arzigulik quloq, darrov otingni ham esga tushiradi. Bekorga seni Shalpangquloq deyishmagan. Jinnivo'yey! - degancha o'z yo'lida dumalab ketdi.

«Yo'g'-yey, shuyam ot bo'ldimi, - deb o'yladi quyov. - Dumimga o'xshagan qisqagina, boshqacha edi».

Shu payt daraxt shoxida o'tirgan olmaxon uni chaqirib qoldi:

-Hoy, Dik-dik, bu yerda nima qilib o'tiribsan?

-So'rama, otimni eslab topolmayman. Oldin bilardim, birdan esimdan chiqib qoldi. Sen nima deding - Dik-dikmi?

-Bo'lmasam-chi? Oting Dik-dik-da! Ishonmasang yurishingga qara. - Olmaxon dumini bir hilpiratdi-yu uchedi-ketdi.

«Shuyam ism bo'ldi-yu, - deb o'yladi quyov. - Yo'q, otim ishonchliroq,

yugurganda quloqqa hushtakday uvillaydigan boshqacharoq ot edi».

Quyovning juda diqqati oshib ketdi. Shu payt yer tuti yeb yurgan bir ayiq kelib

QUYONNING OTI

Ertak

qoldi.

-Ha, G'ilay, nima qilib o'tiribsan? Bilmay bosib olishimga sal qoldi.

-Endi menga baribir, - deb xo'rsindi quyov. - Otimni, yo'qotib qo'ydim. Seningcha, mening otim nima?

-Esing sal anaqaroq emasmi, G'ilay? Aytib turibman-ku otingni!

-Shuyam ot bo'ldimi - G'ilay emish? Allaqanday haqoratli laqab-ku bu. Mening otim karamday «qr-qr» qilardi - eslaysanmi?

Ayiq bu paytda allaqachon bir ko'lmakning suvini sachrata-sachrata ketib bo'lgan edi.

Quyov endi o'zini daryoga tashlamoqchi bo'lib ketayotgan edi, butalar orasidan gangir-gungirovozeshitildi:

-Shoqol deysanmi? - bir shoqol ikkinchi shoqolga gap uqtirardi. - Echkidan qo'rqib o'tiribsan-a! Sen shoqol emas, quyov ekansan!

-O'zing quyov! - tishlarini g'ijirlatdi ikkinchisi.

-Quyov - bu men-ku! - ingrab yubordi quyov. - Men! - deb shunday bir chopish qildiki, yo'lida naq tipratikanni bosvolay

Zohid HALIL

dedi.

-Nima bo'пти quyov bo'lsang, - aljiradi tipratikan. - Sekingina ketaver, Shalpangquloq, hamma yig'ib qo'ygan piyozlarimni sochib yubording.

-Men quyovman! Quyov! - qichqirdi quyov butoqda olmaxonni ko'rib.

-Nima bo'пти quyov bo'lsang, - xafa bo'ldi olmaxon. - Dik-diketavermaysanmi, bolalarimni uyg'otib yubording.

Quyov chopachopachop ketar ekan, shalp etib bir ko'lmakka tushdi va ayiqning oldidan chiqib qoldi.

-Yo'q, sening G'ilayliging aniq, aqling kirdichiqdi, - xirilladi ayiq. - G'irt G'ilaysan!

-Men hech qanaqa G'ilay-pilay emasman, haqiqiy quyovman! - dedi g'urur bilan, quloqlarini o'ynatib. - Haqiqiy quyovman, kimligimni bilib qo'y!

Ayiq quyovning qaysarligini ko'rib hayron bo'ldi va ensasi qotib jo'nab qoldi.

Quyov esa kechgacha o'rmonda chopib yurdi va o'z nomini turli-tuman qilib ayta boshladi: quyov, quyovcha quyov bolal. Dumiday qisqagina, chopganda shamol hushtagiday quloqqa uvillaydigan, karam kesganda «qr-qr» qiladigan «q»li.

Mana ko'rdingizmi: hatto quyovga ham o'z ismi qadrlilik ekan. Insonga-ku, qo'yavering: bolami, kattami - har kimning o'z go'zal ismi bor!

Miraziz A'ZAM tarjimasini.



AJOYIB UKAM BOR

Mening ajoyib Akramjon ismli ukam bor. Yoshi to'rtta. U bizni sira zeriktirmaydi. O'zi kabi ajoyib qiliqlari bilan rosa kuldiradi. Men hozir sizlarga u bilan sodir bo'lgan hangomalardan birini aytib beraman. Shunda siz ham ukamning ajoyibligiga amin bo'lasiz.

Dadam har maosh olganlarida pullarning ichidan eskirgan yoki yirtilgan chiqsa, ishlatish uchun ajratib qo'yardilar. Bir kuni maosh olib kelib, ajratib taxlayotsalar, Akramjon kelib tomosha qila boshladi. U pulni yaxshi tushunmasa ham yonida pul yurishini yaxshi ko'radi. Shuning uchun dadamdan:



-Dada, sunta esti pullayni nima qilasiz? - deb so'radi.

-Nima qilardim, axlatga tashlab yuboraman, - dedilar dadam hazillashib.

Shunda Akramjon o'ylanib turdi-da, qo'shni xonaga chiqib, o'yinchoq yuk mashinasini sudrab chiqdi. Dadamning yonlariga kelib bor ovozda:

-Didid-did, ahyat mosina teldi. Ahyatlani tasiyla, didid-did, - deb baqirdi.

Biz Akramjonning bu ishiga miriqib kuldik va yosh bo'lsa ham aqlli ekanligiga qoyil qoldik.

Ziroatxon ISOMIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi
8 - o'rta maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.

Bolaning tili

STULDA O'TIRAMAN

Avtobusda ketayotgan edim. Oldingi qatordagi o'rindiqlarning birida onasi bilan o'tirgan kichkina qizchani bir amaki gapga tuta boshladi.

-Qayoqqa ketyapsan?

-Sirkka.

-Mazza qilib kelar ekansan-da. Ayiqning ustiga o'tirib olasanmi?

-Yo'q.

-Ayiqdan qo'rqasanmi? Unda otni ustiga minib olasanda-a? Mazza qilib tomosha ko'rib o'tirasan.

-Yo'q.

-Unda qaysi hayvonning ustida o'tirasan?

-Men sirkni stulda o'tirib ko'raman...

Go'zal ABDUSHUKUROVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi
116 - maktabning 6 - «G» sinf o'quvchisi.

VENGERCHA BOSHQOTIRMA

P	M	O	S	K	V	S	U	R	A	B	
A	R	I	I	M	A	A	N	B	O	O	
L	O	J	R	O	A	A	S	O	G	T	
T	N	D	K	I	A	V	O	N	O	T	
O	N	O	O	T	T	M	E	H	I	A	
S	H	K	E	T	O	J	A	K	A	K	O
N	T	N	L	I	R	A	M	R	T	A	
U	D	E	H	L	I	D	O	N	I	P	
K	U	S	Q	O	H	R	I	D	K	E	

Biz sinfda 14 nafar qiz va 12 nafar o'g'il bola birga o'qirdik. Lekin biz qizlar ahil emasdik va shu sababli

QAYDASAN, SINFDOSH...

urishib, ikki guruhga ajralib olardik.

Bir kuni sinfimizdagi beshta qiz bilan arzimagan sababni deb urishib qoldik va ikki guruhga bo'lindik. Bizning guruhda sakkiz qiz, u guruhda esa besh qiz edi. O'g'il bolalar ham biz tarafdadi. Sinf rahbarimiz doim biz bilan birga ketganlari uchun sinf rahbarimiz ham biz tarafdadi deb quvonardik. Ikkinchi guruhdagi qizlarni har xil qo'pol so'zlar bilan kamsitardik.

Bir kuni O'tkir ismli sinfdoshimiz qog'ozga o'sha qizlarni yomonlab bir narsalarni yozib, 2 chi guruhdagi qizlarga berdi. Qog'ozdagi gaplarni o'qigan Dilorom ismli qiz yig'lab yubordi va sinfdan chiqib ketdi. Biz o'g'il bolalar bilan birga qolgan qizlarni masxaralashga tushdik.

Adabiyot darsida o'qituvchimiz voqealardan xabar topib bizni ahil bo'lishga undadilar...

Ertasi kuni maktabga kelib, sinfga kirsak Diloromning onasi o'tiribdi. Diloromning «sherik»lari ham ularning yonida o'tirishibdi. Biz indamay joy-joyimizga o'tirdik. Dilorom onasiga bir nima deb pichirlagan edi, onasi:

ILTJO

Do'stdan yiroq, dushmanga yaqin bo'lsam,
Azoblar qalbimni kuydirsa har dam,
O'tkinchi dunyoda rizqim bo'lsa kam,
Chidama, mehningdan ayir meni, do'st!
Kimdan baland bo'lsam, mayli kimdan past,
Har damda nohaqlar qilaversa qasd.
Hayot yuragimni qilmay qo'ysa mast,
Chidama, mehningdan ayir meni, do'st!
Orzular ushalmas, men yetolmasam,
Hijronlar dashtidan tik o'tolmasam,
Mendan ketganlardan men ketolmasam,
Chidama, mehningdan ayir meni, do'st!

-Hozir, direktor kelsin, keyin gaplashamiz, - dedi. Shu payt sinfga sinf rahbarimiz va direktorimiz kirib

kelishdi. Ular bizdan urush nimadan chiqqanini sabablarini so'rab bilgach:

-Kim aytdi sinf rahbari sizlar tarafdadi deb? - deb so'radilar.

Biz indamay turaverdik. Diloromning onasi ham gapirdi. Direktor bizni va sinf rahbarimizni qattiq urishdi. Keyin bizga:

-Bundan keyin ahil bo'lib o'qinglar. Hoziroq qo'l berib yarashib olinglar va bir-biringlardan kechirim so'ranglar, - dedi.

Shundan keyin biz besh qiz bilan yarashib oldik va bir-birimizdan kechirim so'radik.

Hozir men uyimizdan ancha olis bo'lgan bir maktabda o'qiyman. Agar avvalgi sinfdoshlar bilan uchrashib qolsak, eng birinchi shu voqeani eslaymiz, ham kulishamiz, ham afsuslanamiz.

Nargizabonu TURSUNOVA,
Zangiota tumanidagi
42 - o'rta maktab o'quvchisi.



OZODA GULIM

Qishning qahratoni o'tib ketadi,
Bahorlar bir kun gulin tutadi,
Yo'lingda intizor kimdir kutadi,
Dilingni cho'ktirma, ozoda gulim.
Ko'nglingda ming orzu-armoning yotar,
Yanoqda bir tomchi ko'z yoshing qotar,
Mudroq hayotingni bahor uyg'otar,
Dilingni cho'ktirma, ozoda gulim.
Quyosh lol bo'ladi baxting oldida,
Dushmanlar xor bo'lar, taxting oldida,
Cho'qqilar bosh egar ahding oldida,
Dilingni cho'ktirma ozoda gulim.

Oltinoy QURBONOVA,

Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 14 - maktab-internatning 9- «A» sinf o'quvchisi.



		1			2					
	3								4	
5				6					7	8
			9					10		
11					12		13			
			14							
15										16
17							18			
19		20		21			22		23	
		24								

Mana bu katakchalardagi harflarni vertikal va gorizontal holatda biriktirsangiz, dunyodagi mamlakatlarning poytaxtlari nomlari kelib chiqadi. Bo'sh qolgan harflardan yasalgan so'z sizning bilimingizga bahodir.

Tuzuvchi: Nazira QAYIPBERGANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi
57 - maktabning
8-sinf o'quvchisi.

Savollar:

Bo'yiga: 1. Ho'l meva turi. 2. Yengilning aksi. 3. Qish ziynati. 4. Saxro. 5. Oshxona anjomi. 8. Qadimda yurist. 9. Aylana markazidan o'tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq. 10. Bayram, to'y. 12. G'afur ... 15. ... Asomov. 16. Oylik ish haqi. 20. Xos. 21. Kasallik turi. 22. Qomat.
Eniga: 3. Bahorda uchib keluvchi qush. 5. Iflos. 6. Ho'l meva. 7. To'la. 11. O'g'il bolalar ismi. 13. Og'irlik o'lchovchi moslama. 14. ... Lutfiy. 17. Ish quroli. 18. Yilning eng sovuq va eng issiq kunlari. 19. ... va Jerri. 21. Avtomobillar shahri. 23. Fasl. 24. O'zbekistondagi viloyat.

Tuzuvchi: Feruza OBIDOVA,
O'DK tibbiyot kollejining 1-kurs, 30-guruh talabasi.

Bizning to'garak



O'RIK

Surxon o'rik, oq o'rik,
Pishadi yoz faslida.
Shirinligi asaldan
Qolishmaydi aslida.



ARI

Bizga zo'r asal berar,
Nomi ham asalari.
To'p bo'lib g'izillashar -
Ahil, inoqdir bari.



Gulnora OMONOVA,
Norin tumanidagi

44 - maktabning 8-sinf o'quvchisi.

HUMO QUSH

Ey, humo qush, humo qush,
Kayfiyating doim xush.
Dunyoga boqib sinchik,
Bizga tilaysan tinchlik.



Tengdoshingiz Yunusobod
tumanidagi 239 - maktabning
5-sinf o'quvchisi Suxrob
MIRZAYEV chizgan suratini
«Quvnoq qorbola» deb
nomlabdi.

RASSOM

Qoyaga chiqayotgan,
Buzoqni chizdi Anvar.
Rasmga qarab turib,
Ukasiga maqtanar.
Ukasi der: «Akajon,
O'ylab ko'rmabsiz bundoq.
Sal yursa qoya tugab
Yiqilmaydimi buzoq?»

Dilrabo

DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy
tumanidagi 118 - maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.



TOPISHMOQLAR

Qo'y-qo'zi, yo'limdan qoch,
Qornim bugun juda och.



Nafsing tiysang, bo'lar soz,
Meni tutib biroz, oz.

(Parhez)


Qishda quvnasa barcha,
Demak, bezalgan ...



Charaqlaganda oftob sochini yoya,
Sendan qolib ketmagay hech vaqt ...

(Soya)

Senga onang baxt-iqbol tilar,
Men taragan sochingni silar.



Shoxda sayrab, mehmon kelar bo'lgan on,
Xushxabardan ogoh qilar ...

(uo, szl, szz)


- Meni qor der shimoldagi oq maymoq,
Degay boqib muzlatgichda ...



Toza bo'lsa, barcha dardlarga davo,
Insonga zarur doim suv va ...

(Havo)

Men taomning ishtaha ochar yori,
Deydi labing achitib ...



«Kiyim - boshing yechmay tushsang bo'lar xo'!»,
Degay seni yozda quchib moviy ...

(Ko'l)

Jahongir MIRZAALIYEV.

Bir chol o'rmonda
ketayotib, qo'lqopini
tushirib qo'yibdi.

QO'LQOPCHA

kimsan?

-Menmi,
m e n

Uning yonidan sichqon yugurib o'tib qolibdi. Qo'lqopchani
ko'rgan sichqon ajablanib so'rabdi.

(Ertak)

xushfe'l tulkiyoyman.

-Uycha, uycha, hoy uycha! Kim yashaydi uychada?

-Kelaqol, birga yashaymiz.

Unga hech kim javob bermabdi. Shunda sichqoncha qo'lqopchaga
kiribdi va uning ichida o'ziga uycha qurib olibdi. Quyion yugurib
kelibdi:

Shunday qilib, ular uchchovlon birga yashay

-Uycha, uycha, hoy uycha! Kim yashaydi uychada?

boshlashibdi.

-Men mitti sichqonman, o'zing kimsan?

To'satdan bo'ri yugurib o'tib qolibdi-yu ko'zi qo'lqopchaga tushibdi:

-Men chaqqonoyoq quyionchaman.

-Uycha, uycha, hoy uycha! Kim yashaydi uychada?

-Kiraqol, birga yashaymiz.

-Mitti sichqoncha, chaqqonoyoq quyioncha, xushfe'l tulkiyoyman... Sen
o'zing kimsan?

-Men o'tkir tishli bo'rivoyman.

-Kiraqol, uyimizda joy mo'l.

Ular to'rtovlon birga yashay boshlashibdi. Ayiq o'tib qolibdi:

-Uycha, uycha, hoy uycha! Kim yashaydi uychada?

-Mitti sichqoncha, chaqqonoyoq quyioncha, xushfe'l tulkiyoyman, o'tkir
tishli bo'rivoyman. Sen o'zing kimsan?

-Men ayiqpolvonman.

-Kiraqol, birga yashaymiz.

Ammo shu payt itning hurigani eshitildi va o'rmondan chol chiqib
kelibdi. Hayvonlar qo'rqib ketganidan ko'zi tushgan tomonga qarab
tiraqaylab qochib qolishibdi. It yugurib kelib qo'lqopni olibdi-da,
yo'liga ravona bo'libdi.

Rus tilidan

Gulnoz TOJIBOYEVA tarjimasini.



Ona yurtim - oltin beshigim
TONG
Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset usulida
bosildi.

Korxonada manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № G-55
Gazetani
Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrir PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75